

“MA’QULLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashining
2024-yil 30-avgustdagi 18-sonli majlis
bayoni bilan

“TASDIQLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat Xalq banki Aksiyadorlarining
2024-yil 27-sentabrdagi 4-sonli umumiy
yig‘ilishi bayoni bilan

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizom

(yangi tahrirda)

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizomi hamda O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining (keyingi o‘rinlarda – Bank) aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi maqomini belgilaydi va uning ishini, uni o‘tkazish va qarorlar qabul qilishi jarayonlarini tartibga soladi.

2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi Bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

2-bob. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatlari

3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Bank Ustavini tasdiqlash;

2) Bankni qayta tashkil etish;

3) Bankni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a‘zolarini saylash va a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

5) e‘lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;

6) Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

7) o‘z aksiyalarini olish;

8) Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

9) Bankning yillik hisobotlarini, shuningdek Bankning o‘rta yoki uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash;

10) Bankning foydasi va zararlarini taqsimlash;

11) Kuzatuv kengashi a‘zolariga beriladigan haq va ularning o‘z funksiyalarini bajarishlari bilan bog‘liq xarajatlarini kompensatsiya qilish miqdorini belgilash;

12) Bank boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash. Bunda, Bank Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv Raisi o'rinbosarlariga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ko'rsatilgan miqdor doirasida belgilanadi;

13) Umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

14) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

15) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi, Bank boshqaruvi to'g'risidagi nizomlarni, ichki nazorat to'g'ridagi nizom va boshqa tegishli hujjatlarni tasdiqlash;

16) qonun hujjatlariga muvofiq yirik bitimlar hamda affillangan shaxslar bilan tuzilishi kutilayotgan bitimlar to'g'risida qaror qabul qilish;

17) Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

18) imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

19) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

20) qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar Kuzatuv kengashiga hal qilish uchun berilishi mumkin emas.

5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar Bank boshqaruviga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

3-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi

6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari yillik (hisobot) va navbatdan tashqari yig'ilishlar tarzida o'tkaziladi.

7. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishlari har yili, moliya yili tugagandan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash to'g'risidagi masalalar hal etiladi hamda Bankning yillik hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

9. Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti va joyini belgilash, uning kun tartibini tayyorlash, o'tkazilishi to'g'risida aksiyadorlarni xabardor qilish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar ro'yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Bank boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgunga qadar aksiyadorlarga kun tartibi, shu jumladan, Kuzatuv kengashining umumiy yig'ilish kun tartibidagi masala bo'yicha pozitsiyasi yuzasidan zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

10. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek, aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi u tasdiqlagan reglamentga muvofiq o'tkaziladi.

4-bob. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

12. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda Kuzatuv kengashi tomonidan quyidagilar belgilanadi:

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyi;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar berish uchun bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega Bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar qilish tartibi;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim qilinadigan ma'lumotlar (materiallar) ro'yxati;

ovoz berish byulletenining shakli va matni.

13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Bank aksiyadorning yozma talabiga ko'ra u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, qimmatli qog'ozlar fond birjasining rasmiy veb-saytida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

16. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabarda quyidagilar bo'lishi kerak:

Bankning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

Bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana;

umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi kerak bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishtirish tartibi.

17. Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) bankning yillik hisoboti, auditorlik tashkilotining xulosasi, shuningdek Kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlar to'g'risidagi

ma'lumotlar, Bank Ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoxud Bankning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi kiradi.

18. Bank ovoz beruvchi aksiyadorlari (aksiyadori) Bankning moliya yili tugagandan keyin uch oydan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Kuzatuv kengashiga bu organing son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoliciga nomzodlar ko'rsatish mustasno. Bunda, nomzodlarning ismi-sharifi, lavozimi va nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotnoma ilova qilgan holda, yozma shaklda kiritiladi.

Aksiyadorlar (aksiyador) Kuzatuv kengashi o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.

19. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyador) nomi, ularga tegishli aksiyalarning soni va turini ko'rsatgan holda yozma shaklda kiritiladi.

20. Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni belgilangan muddat tugagandan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay ko'rib chiqishi va ularni aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

21. Aksiyador (aksiyadorlar) kiritgan masala aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Kuzatuv kengashiga saylovlar yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan mazkur Nizomning 19-bandida belgilangan muddatga rioya etilmagan bo'lsa;

aksiyador (aksiyadorlar) mazkur Nizomning 19-bandida nazarda tutilgan bankning ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

Bankning saylov organlariga ko'rsatilgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

taklif O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Bank Ustavi va ushbu Nizom talablariga muvofiq bo'lmasa.

22. Kuzatuv kengashi masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga yoki nomzodni Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

23. Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritish yoki nomzodni Kuzatuv kengashiga saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan aksiyador sudga shikoyat qilishi mumkin.

5-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishda qatnashish huquqi. Aksiyadorlarni va ularning vakolatli vakillarini ro'yxatdan o'tkazish

24. Bank boshqaruvi, Kuzatuv kengashi a'zolari shuningdek, auditorlik tashkiloti vakilining aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etishi mumkin.

25. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida muassasa rahbarining imzosi bilan yoki bunga ta'sis hujjatlari bilan vakil qilingan boshqa shaxsning imzosi chekilgan, ushbu muassasaning muhri bilan tasdiqlangan uning nomiga berilgan ishonchnoma mavjud bo'lgan taqdirda qatnashishi mumkin. Ovoz berishga doir

ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasporti (ID)ga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim.

26. Bank aksiyadorlari reyestriga binoan ilovaga muvofiq shakl bo'yicha qayd etish ro'yxati tuziladi.

Qayd etish ro'yxati risola holiga keltirilgan, tartib raqami qo'yilgan va Bank muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

27. Umumiy yig'ilishni o'tkazishda aksiyadorlarning vakillari qayd etish ro'yxatiga imzo chekadilar va Bank aksiyadorlari reyestri ma'lumotlari bo'yicha belgilangan har bir aksiyadorning ovoz beruvchi aksiyalari sonidan kelib chiqib ovoz berish uchun byulletenlarni oladilar.

28. Agar yig'ilish qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatiga esa u ifodalayotgan aksiyadorning nomi qarshisiga vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

6-bob. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

29. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra quyidagilar asosida o'tkaziladi:

Kuzatuv kengashi tashabbusi bilan;

yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi bilan.

30. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

31. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan hamda tegishli materiallar taqdim etilgan bo'lishi kerak.

32. Kuzatuv kengashi Bank aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

7-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi

33. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, agar umumiy yig'ilishda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tish yakunlangan paytida bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ortig'iga egalik qiluvchi aksiyadorlarning vakillari ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

34. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

35. Aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida, agar unda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tkazish yakunlangan

paytida Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 (qirq) foizidan ko'proq ovoziga egalik qilgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish qonunchilikda belgilangan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

36. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan oz muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

8-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari

37. Quyidagilar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ishchi organlari hisoblanadi: umumiy yig'ilishning raisi, sanoq komissiyasi, kotibi.

Sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etishi mumkin (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi).

38. Umumiy yig'ilishda Kuzatuv kengashining raisi raislik qiladi, u bo'lmaganda esa Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri raislik qiladi.

39. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisi yig'ilishni tasdiqlangan reglamentga asosan olib borilishini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan vakolatlarga ega bo'ladi.

40. Umumiy yig'ilish raisi yig'ilishning ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish va ma'ruzachilarning nutq so'zlashlari vaqtini chegaralaydi, yig'ilishni olib borish va ovoz berish davomida sanoq komissiyasi bilan birgalikda tushuntirishlar beradi, tartib o'rnatilishini nazorat qiladi.

41. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

42. Sanoq komissiyasi tarkibi kamida 3 (uch) kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Kuzatuv kengashi a'zolari, bank Boshqaruvi a'zolari kirishi mumkin emas.

43. Tasdiqlangan sanoq komissiyasi:

aksiyadorlar umumiy yig'ilishida kvorum mavjudligini aniqlaydi;

umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlarning vakillari tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi;

ovoz berishga qo'yilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi;

ovoz berishning belgilangan tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda qatnashish huquqini ta'minlaydi;

umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchi shaxsga o'zi to'ldirgan byulleten nusxasini olish imkonini beradi;

ovozlarni sanaydi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi;

ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi;

ovoz berish byulletenlarini Bank arxiviga topshiradi.

9-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi (reglamenti)

44. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi (reglamenti) har bir umumiy yig'ilishda tasdiqlanadi va/yoki mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

45. Bank Kuzatuv kengash raisi umumiy yig'ilishning raisini, sanoq komissiyasini, rayosatini va kotibini saylashni taklif etadi.

46. Umumiy yig'ilishni olib borish tartibi yig'ilishning boshlanishi va taxminan tugash vaqtini, nutqlar qancha davom etishi va tanaffuslarni, kun tartibi masalalarining izchilligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

47. Yig'ilish davomida paydo bo'luvchi joriy masalalarni rais muhokama qilinayotgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bosh prinsipdan: har bir qatnashchining belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqidan foydalanishi mumkinligidan kelib chiqib yakkaboshchilik bilan hal etadi.

48. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda qatnashish istagini bildirganlar umumiy yig'ilish kotibiyatiga muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda buyurtma beradilar.

49. Kun tartibining barcha masalalari muhokama qilingandan keyin rais aksiyadorlar umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.

10-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasi

50. Umumiy yig'ilish kotibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Qoida tariqasida umumiy yig'ilish kotibligiga Korporativ maslahatchi tavsiya etiladi.

51. Umumiy yig'ilish kotibi:

umumiy yig'ilishning bayonnomasini olib boradi;

yozma buyurtmanomalar bo'yicha yig'ilish kun tartibi masalalarini muhokama qilishda qatnashish istagini bildiruvchilar ro'yxatini tuzadi;

umumiy yig'ilish to'g'agandan so'ng 10 (o'n) kundan kechikmay aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasini ikki nusxada tuzadi va raislik qilgan va o'zi tomonidan imzolanishini ta'minlaydi.

52. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, joy va vaqt;

Bankning ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lgan aksiyadorlar egalik qilgan ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda qatnashgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

53. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy mazmuni, ovoz berishga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish natijalari, yig'ilishda qabul qilingan qarorlar aks ettirilishi lozim.

54. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

55. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasi imzolangandan keyin sanoq komissiyasi yig'ilish hujjatlarini, shu jumladan, umumiy yig'ilishning qayd etish ro'yxatini, ovoz berish byulletenlarini, Bank arxiviga topshiradi.

56. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibi Bank devonxonasiga belgilangan muddatgacha saqlash uchun topshiradi.

11-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarini bajarish

57. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilishni, basharti yig'ilish qarorida o'zgacha holat qayd etilmagan bo'lsa va bayonnomada aks ettirilmagan bo'lsa, Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

58. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan, shuningdek hozir bo'lmagan barcha aksiyadorlar tomonidan, ularga tegishli qismi bo'yicha bajarilishi majburiydir.

12-bob. Yakuniy qoidalar

59. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

60. Ushbu Nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va bekor qilingan kunga (yangi Nizom qabul qilingan kunga) qadar amal qiladi.

61. Agar ushbu Nizomning me'yorlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustavidagi tartib hamda me'yorlariga zid bo'lsa, unda Nizom amaldagi me'yorlarga moslangunga qadar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bank Ustavida belgilangan me'yorlar qo'llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat Xalq banki Aksiyadorlarining
umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi
Nizomiga
ILOVA

Xalq banki aksiyadorlarining
_____yil _____da o‘tkaziladigan

**Umumiy yig‘ilishining
qayd qilish ro‘yxati**

T/r	Aksiyadorning nomi	Ovoz beruvchi aksiyalar soni	Aksiyador imzosi					
				Vakilning famiyasi, ismi, sharifi	Ishonchnoma raqami	Ishonchnoma berilgan sana	Ovoz beruvchi aksiyalar soni	Vakil imzosi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Boshqaruv Raisi o‘rinbosari: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter: _____

(imzo)

(F.I.Sh.)